



ELEKTRON TIJORATDA SUBYEKTLAR TARKIBI VA ULARNING HUQUQIY MAQOMI

Adizova Nargiza Parda qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Mazkur tezis ishida elektron tijoratdagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tarkibi, ularning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek, bu ishtirokchilarning javobgarlik masalalari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni asosida elektron tijorat ishtirokchilari (sotuvchi va xaridor), shuningdek, elektron tijorat operatorlari (axborot vositachilari)ning huquqiy maqomi aniqlab berilgan. Sotuvchi sifatida yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va ba'zi holatlarda jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin bo'lsa, xaridor sifatida esa har ikki – yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Elektron tijorat operatorlari – ya'ni axborot vositachilari – savdo maydonchalari, telekommunikatsiya provayderlari, banklar, elektron hujjat aylanishi va saqlanishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar sifatida maydonga chiqadi. Ularning asosiy vazifasi – savdo subyektlari o'rtasida virtual muhitda shartnoma tuzish imkoniyatini yaratishdir. Xorijiy davlatlar, xususan Yaponiya va Filippin qonunchiligi misolida xalqaro yondashuvlar tahlil qilingan bo'lib, O'zbekiston amaliyotida mavjud bo'lgan modellarning umumiylik va farqlari ko'rsatilgan. Ishning yakunida elektron tijorat ishtirokchilari va operatorlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda javobgarlik masalasining dolzarbligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron tijorat subyektlari, sotuvchi, xaridor, elektron tijorat modellari, elektron tijorat operatorlari.



COMPOSITION OF SUBJECTS IN ELECTRONIC COMMERCE AND THEIR LEGAL STATUS

Adizova Nargiza Parda qizi

Master's student at Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

Abstract

This thesis work covers the composition of participants in legal relations in electronic commerce, their legal status, rights and obligations, as well as the issues of responsibility of these participants. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Commerce", the legal status of electronic commerce participants (seller and buyer), as well as electronic commerce operators (information intermediaries) is determined. Legal entities, individual entrepreneurs and, in some cases, individuals can participate as sellers, while both legal entities and individuals can participate as buyers. Electronic commerce operators - that is, information intermediaries - act as trading platforms, telecommunications providers, banks, entities providing services for electronic document management and storage. Their main task is to create the possibility of concluding contracts between trading entities in a virtual environment. International approaches are analyzed using the example of foreign countries, in particular, the legislation of Japan and the Philippines, and the commonalities and differences of existing models in the practice of Uzbekistan are shown. At the end of the work, the relevance of the issue of liability in legal relations between participants and operators of electronic commerce is emphasized.

Keywords: electronic commerce, electronic commerce entities, seller, buyer, electronic commerce models, electronic commerce operators.

Har qanday ijtimoiy munosabatlarning subyektlari – ishtirokchilari bo‘lgani kabi, elektron tijoratdagi ishtirokchilar tarkibini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ularning ishtirokchilarining xatti-harakatlariga qarab baho beriladi. Elektron tijoratda shartnomalardan kelib chiquvchi fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash ham elektron tijorat



ishtirokchilarining tarkibi va huquq va majburiyatlariga qarab belgilanadi. Elektron tijorat subyektlarini tasniflash bo'yicha turli xil qarashlar mavjud. Elektron tijorat huquqi subyektlari o'zlarining bajaradigan vazifa va funksiyalariga qarab uch turga bo'linadi: sotuvchi, xaridor va vositachi. Bundan tashqari, elektron tijoratdagi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakli, maqomi va ishtirok etish xususiyatiga qarab, biznes modellariga ajratiladi. Elektron tijorat huquqining subyektlari – ishtirokchilarini tasniflashda ularning elektron tijoratni amalga oshirishdagi roliga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: elektron tijorat ishtirokchilari (sotuvchi va xaridor); axborot vositachilari; subyektlar-ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va elektron tijoratni tashkiliy-huquqiy ta'minlash funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari hamda notijorat tashkilotlari¹. “Elektron tijorat to'g'risida”gi qonunning 3-moddasiga ko'ra elektron tijorat subyektlari elektron tijorat ishtirokchilari va (yoki) elektron tijorat operatorlaridan iborat. Ushbu qonunda ishtirokchilar va operatorlarning huquq va majburiyatlari ham belgilab berilgan. Qonunga ko'ra, elektron tijorat ishtirokchilari sifatida sotuvchi va xaridor ko'rsatilgan bo'lib, kimlar sotuvchi va kimlar xaridor bo'lishi belgilab qo'yilgan. Elektron tijoratda sotuvchi sifatida yuridik shaxslar: mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, to'liq va kommandit shirkatlar, oilaviy korxona, xususiy korxonalar; yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar; o'zini o'zi band qilgan shaxslar ishtirok etishi mumkin. Xalqaro hamjamiyatda elektron tijorat modellaridan kelib chiqqan holda C2C – ya'ni, iste'molchi iste'molchiga tovarlar yetkazib berishi va xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Bunday holatda jismoniy shaxs – fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolari ham sotuvchi sifatida elektron tijoratda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi. O'zbekistonda olx.uz savdo maydonchasi orqali o'z tovarlari, ish va xizmatlarini sotuvchilar ba'zi hollarda jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin, chunki elektron tijorat operatori sotuvchiga yuridik shaxs bo'lsin yoki YaTT bo'lsin deb talab qo'ymagan va bu qonuniydir. Elektron tijorat modellaridan kelib chiqib ishtirokchilarga ba'zi bir talablar qo'yilishi mumkin. Masalan, B2B (business to business) modeli yoki B2G (business to government) modellari

¹ Elektron tijorat huquqi [Matn]: darslik/ Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 90 b.



bo'yicha sotuvchi, albatta, tadbirkorlik subyekti bo'lishi lozim. Bu holatda tadbirkorlik subyekti sifatida yuridik shaxslarni va YaTTlarni tushunish mumkin. Savdogarlarning huquqiy maqomi bilan birga ularning tashkiliy-huquqiy shakliga, moliyaviy holatiga, ustav kapitaliga va boshqa jihatlariga ma'lum bir talablar belgilanishi mumkin va bu qoida biznes yuritishning tabiiy qoidalaridan kelib chiqadi hamda diskriminatsiya sifatida qaralmaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, Yaponiyada elektron savdo munosabatlari Fuqarolik kodeksi hamda Savdo kodeksi bilan huquqiy tartibga solingan. Shartnoma tovarlar, xizmatlar yoki raqamli mahsulotlarni yetkazib berish bo'ladimi, ayrim tartibga solinadigan tarmoqlar yoki Yaponiya davlat siyosati tomonidan taqiqlangan tovarlar, xizmatlar va raqamli mahsulotlar uchun umumiy qo'llaniladigan qoidalaridan tashqari hech qanday jiddiy farq yo'q².

Filippin Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni 5-moddasida, "Adresat" deganda muallif tomonidan elektron ma'lumotlar xabari yoki elektron hujjat qabul qilinishi mo'ljallangan shaxs tushuniladi. Ushbu atama ushbu elektron ma'lumot xabari yoki elektron hujjatga nisbatan vositachi sifatida ishlayotgan shaxsni o'z ichiga oladi. "Originator" elektron hujjat kim tomonidan yoki kimning nomidan yaratilgan yoki yuborilgan deb ko'rsatilgan shaxsni bildiradi³.

Elektron tijoratning yana bir ishtirokchi hisoblangan iste'molchi – xaridorning huquqiy maqomi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida belgilangan bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar xaridor bo'lishi mumkin. Xaridorlar uchun alohida talablar qonunchilikda belgilanmagan.

Elektron tijoratda sotuvchi va xaridorlarning huquq va majburiyatlarini aniqlab olish ham javobgarlik belgilanishida muhim ahamiyatga ega. Elektron tijoratda sotuvchining huquqlariga quyidagilar kiradi: elektron tijorat sohasidagi mavjud axborot tizimlarida (internet-do'kon, savdo maydonchasi va h.k.) o'z tovarlari (ishlari, xizmatlari) haqidagi ofertani (ya'ni, taklifni) joylashtirish; elektron shartnomalar tuzish yo'li bilan tovarlarni sotish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish); elektron hujjatlar va elektron xabarlarini saqlash uchun axborot

² <https://iclg.com/practice-areas/digital-business-laws-and-regulations/japan>

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/obzor-zakonodatelstva-ob-elektronnoy-torgovle-v-stranah-asean>



vositachilariga topshirish; agar ommaviy oferta (shartnoma)da belgilangan bo'lsa, tovar narxlarini, xizmat tariflarini, to'lov va yetkazib berish usullari va muddatlarini bir tomonlama o'zgartirish (odatda, bu haqida platformada oldindan xabar beriladi); xaridordan oldindan ruxsat olishsiz, o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish (agar shartnomada ruxsat berilgan bo'lsa); O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Sotuvchining majburiyatlari esa quyidagi majburiyatlardan iborat: tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida zarur va ishonchli ma'lumotni (tavsifi, xususiyatlari, narxi, kafolat muddati, ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot va h.k.) xaridorga taqdim etish; o'zi to'g'risida (firma nomi, YaTTning familiyasi va ismi, STIR, joylashgan joyi, pochta manzili, elektron pochta, telefon raqami, litsenziya mavjud bo'lsa, raqami va muddati) elektron shaklda davlat tilida, zaruriyat bo'lganda esa boshqa tillarda ishonchli axborot berish; elektron hujjatlar va elektron xabarlarining saqlanishini ta'minlash; tuzilgan shartnoma shartlariga qat'iy rioya qilish (tovarni yetkazib berish muddati, to'lov shartlari, qaytarish tartibi); sotilayotgan tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) tegishli sifat darajasini ta'minlash; iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish. Bu, ayniqsa, nuqsonli tovarlarni almashtirish, ta'mirlash yoki pullarni qaytarishda muhim; tovarning (ish, xizmatning) xaridor hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfsizligini ta'minlash. Elektron tijoratda xaridorning huquqlari quyidagilardan iborat: elektron tijorat vositasida shartnomalar tuzish orqali tovarlarni (ishlar, xizmatlar) sotib olish; tovarlar, ishlab chiqaruvchi va tovarlarni sotib olishning boshqa shartlari to'g'risida to'liq, ishonchli va o'z vaqtida axborot olish; elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan operatsiyalarda ishtirok etish uchun shartlarning tengligini talab qilish; o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini talab qilish. Bu, ayniqsa, tovarida nuqson topilganida, yetkazib berishda muammo yuzaga kelganida yoki sotuvchi o'z majburiyatlarini bajarmaganida muhim; "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, nuqsonli tovarni qaytarish, almashtirish, nuqsonlarni bartaraf etish yoki xarid pulini qaytarib olish huquqi va qonunchilikka ko'ra boshqa huquqlar. Xaridorning majburiyatlariga esa quyidagilar kiradi: shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif (oferta) qabul qilinganidan keyin shartnoma tuzish va tovar (ish, xizmat) yetkazib berish uchun zarur bo'lgan



hujjatlarni va ma'lumotlarni (masalan, to'g'ri manzil, aloqa telefon raqami) taqdim etish; tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun belgilangan tartib va muddatlarda to'lovni amalga oshirish; to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonunchilikka muvofiq to'lov tizimlari operatorlariga taqdim etish; yetkazib berilgan tovarni qabul qilib olish (agar u shartnomaga mos kelsa); qonunchilikka hamda shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

O'zbekiston qonunchiligida «Elektron tijorat operatori» tushunchasi aniq belgilangan. Bu, asosan, elektron tijorat platformalarini (masalan, internet-do'konlar, onlayn savdo maydonchalari, e-auksionlar) boshqaruvchi va elektron tijorat ishtirokchilariga (sotuvchilar va xaridorlar) o'zaro bitimlar tuzish imkoniyatini yaratuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 14-bandida, elektron tijorat operatorlariga quyidagilar kirishi sanab o'tilgan:

elektron tijorat ishtirokchilarining elektron hujjatlari va elektron xabarlari aylanishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari;

elektron tijorat ishtirokchilarining to'lov tizimlaridan foydalanilishini va to'lovlar o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi banklar;

elektron yarmarkalar, kimoshdi savdolari va tanlovlar tashkil etilishini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

elektron tijorat ishtirokchilarining elektron hujjatlari va elektron xabarlarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar. Axborot vositachilari jumlasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yuridik shaxslar ham kiritilishi mumkin⁴.

Elektron tijorat operatorlari, ya'ni axborot vositachilari elektron shartnomani tuzishdagi muhim taraf hisoblanadi. Negaki, aynan ular elektron savdo maydonchasini yaratadi va an'anaviy bozorlardagi kabi sotuvchi va xaridorni virtual "uchrashtiradi". Axborot vositachilarining ro'yxati qonunchilikka ko'ra, ochiq ro'yxat hisoblanadi. Elektron tijorat operatorlari tadbirkorlik faoliyati bilan

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2016 yildagi 185-son. Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz/docs/-2973939>



shugʻullanuvchi subyektlar hisoblanadi. Ular belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtgan boʻlishlari shart. Faqat Oʻzbekiston rezidentlari – davlat roʻyxatidan oʻtgan yuridik shaxslar elektron tijorat operatori sifatida faoliyat yuritishi mumkin⁵. Odatda, elektron tijorat operatori sifatida faoliyat yuritish uchun alohida litsenziya talab etilmaydi. Biroq, agar operator oʻz faoliyati doirasida litsenziyalanishi shart boʻlgan boshqa xizmatlarni (masalan, toʻlov tizimi operatori, kuryerlik xizmatlari) koʻrsatsa, tegishli litsenziyalarga ega boʻlishi lozim.

Elektron tijorat operatorlarining asosiy huquqlari elektron tijorat sohasidagi xizmatlarni shartnoma asosida oʻz vakolatlari doirasida koʻrsatish, elektron tijorat subyektlariga koʻrsatiladigan xizmatlarning shartlarini belgilash, elektron hujjatlarni va elektron xabarlarini boshqa elektron tijorat operatorlariga saqlash uchun topshirish kabi huquqlardan iborat. Shuningdek, amaliyotda operatorlar quyidagi huquqlarga ham ega boʻladi: xizmatlar uchun komissiya (vositalik haqi) undirish; platformada joylashtiriladigan maʼlumotlarning aniqligini tekshirish (oʻz imkoniyatlari doirasida); shartnomalar shartlarini buzgan ishtirokchilarga nisbatan choralar koʻrish (masalan, akkauntni bloklash). Elektron tijorat operatorlarining javobgarlik masalasi ularning qonun boʻyicha va shartnoma boʻyicha olgan majburiyatlari bilan belgilanadi. Qonun boʻyicha elektron tijorat operatorlarining asosiy majburiyatlarini koʻrib chiqsak, albatta, birinchi oʻrinda oʻz tizimining uzluksiz ishlashini taʼminlash va maʼlumotlarning xavfsizligini taʼminlash majburiyati turadi. Maʼlumot xavfsizligini taʼminlash borasidagi burchlar foydalanuvchilarning shaxsiy maʼlumotlarini himoya qilish, ularning maxfiyligini taʼminlash (“Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonun talablariga rioya qilish); elektron tijorat platformasining texnik xavfsizligini taʼminlash, kiberhujumlardan himoyalani; bitimlarning haqiqiyli va yaxlitligini taʼminlash kabilarni oʻz ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi Qonuni. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.

⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.12.2024 yildagi 885-son. Oʻzbekiston respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori. <https://www.lex.uz/docs/-7282643>



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.12.2024 yildagi 885-son. O‘zbekiston respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. <https://www.lex.uz/docs/-7282643>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2016 yildagi 185-son. Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. <https://lex.uz/docs/-2973939>
4. Elektron tijorat huquqi [Matn]: darslik/ Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich. — T.: TDYU nashriyoti, 2024. — 506 b.
5. <https://iclg.com/practice-areas/digital-business-laws-and-regulations/japan>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/obzor-zakonodatelstva-ob-elektronnoy-torgovle-v-stranah-asean>